

## **ISLOM MOLIYA TIZIMINING MAZMUNI, MOHIYATI VA LOYIHALARNI BOSHQARISH VA MOLIYALASHTIRISH UCHUN TAQDIM ETILADIGAN MOLIYAVIY INSTRUMENTLARI**

**Ishniyazov Otabek Bahodirovich,**

Bank moliya akademiyasi tinglovchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va boshqarishda Islom moliya tizimi mahsulotlari, xizmatlari va amaliyotlari masalalari borasida batafsil ma'lumotlarni yoritib berish hisoblanadi. Xususan, maqolada islom moliyasining mohiyati, tamoyillari, boshqaruv instrumentlari va mahsulotlari to'g'risidagi tushunchalar keng ko'lamda ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlari.** Islom moliyasi, tamoyillar, investitsiya loyihalari, shartnoma va/yoki mahsulotlar.

**Аннотация:** Целью данной статьи является освещение вопросов продуктов, услуг и практики исламской финансовой системы в финансировании и управлении инвестиционными проектами в Республике Узбекистан. В частности, в статье широко рассматривается концепция сущности, принципов, инструментов управления и продуктов исламских финансов.

**Ключевые слова.** Исламские финансы, принципы, инвестиционные проекты, контракты и/или продукты.

**Abstract:** The purpose of this article is to highlight issues of products, services and practices of the Islamic financial system in the financing and management of investment projects in the Republic of Uzbekistan. In particular, the article broadly examines the concept of the essence, principles, management tools and products of Islamic finance.

**Keywords.** Islamic finance, principles, investment projects, contracts and/or products.

## **1. KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasida yirik investitsiya loyihalarini boshqarish va ularni moliyalashtirishning samarali usullarini milliy iqtisodiyot xususiyatlarini inobatga olgan holda joriy etish, investitsiya faoliyatida loyihaviy risklarni maksimal darajada pasaytirish, risklarni samarali boshqarish, resurslar taqchilligi sharoitida yirik investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishni tashkil etish bugungi kun bank - moliya tizimining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunda tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan Islom moliya tashkilotlarining mahsulot va xizmatlaridan foydalanishni takomillashtirish natijasida moliyaviy amaliyotlar sifatining oshishi, xususiy tarmoq vakillari salohiyatining o‘shishi, aholi turmush darajasining yaxshilanishi hamda mamlakat iqtisodiyoti rivojiga hissa qo‘shishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

## **2. ADABIYOTLAR SHARHI**

“Islom moliya tizimi” ancha avval paydo bo‘lganligiga qaramasdan, iqtisodiy atama sifatida 1980 yillar o‘rtalarida ilm fanga kirib keldi. XXI asrda Islom moliyasi tizimiga nisbatan qiziqish yuqori darajada bo‘lib, ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borish, tahliliy materiallar jamlash va tayyorlash borasidagi faoliyat oshib bordi. Xususan, chet ellik olimlar Gait va Uortington ta'kidlaganidek, Islom moliyasi – bu shariat tamoyillari asosida amalga oshiriladigan moliyaviy xizmat yoki mahsulotdir.

Shuningdek, xalqaro hamjamiyatda audit xizmatlarini ko‘rsatuvchi “Big Four” dan biri bo‘lgan tashkilot “Deloyt end Tush” (Deloitte Touche Tohmatsu Limited) Islom moliyasiga quyidagicha izoh beradi: «Islom moliya tizimi o‘ziga xos aralash iqtisodiy tizim bo‘lib, unda adolat, foyda va zararga sheriklik hamda haqiqiy moliyaviy tranzaksiyalarga asoslangan axloqiy me'yorlar va islom huquqi (shariat)ga mutanosib ravishda amalga oshiriladi». Shu bilan bir qatorda, O‘zbekistonlik iqtisodchi olim va

tadqiqotchilar X.Xasanov, A.Tursunov, J.Imamnazarov, M.Sultanov, S.Z.Abrorov, N.Allaberganova va O.Davlatyarovlarning ilmiy ishlarida loyihalarni islom moliyasi mahsulotlari orqali tashkil etish hamda uni samarali tarzda yuritishning nazariy va amaliy jihatlari o'z aksini topgan.

### **3.TAHLIL VA NATIJALAR**

Islom moliyasi – bu Shariat tamoyillariga zid bo'lmagan, sherikchilikka asoslangan va xatarlar teng taqsimlangan, aktiv bilan ta'minlangan, atrof - muhit va ijtimoiy masalalarga nisbatan mas'uliyatli, adolatli bo'lgan moliyaviy tizimdir. Islom moliya tizimida asosiy urg'u, konsentratsiya jamiyatning moliyaviy - iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga, mamlakat ijtimoiy hayoti farovonligini oshirishga, sheriklar o'rtasida xatarlarni o'zaro teng taqsimlashga qaratiladi. Bizga ma'lumki, an'anaviy moliya tizimi, shu jumladan, an'anaviy bank sohasi aholi va tadbirkorlardan pul mablag'larini jalb qilib, ularni moliyalashtirishga tayangan. Mazkur holatda, bank va mijozlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar har doim qarzdor va kreditor munosabatlari hisoblanadi hamda Shariat bilan ta'qiqlangan foizlarga asoslanadi. An'anaviy moliya tizimining asosiy jihati shundaki, pul pulni yoki pul foizlarni yaratadi. Mazkur holatlar esa Islom moliyasida qabul qilinmaydi.

Islom moliyasi tizimining asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

Ribo (sudxo'rlik, ya'ni foiz asosidagi hisob - kitoblar) va moliyaviy jarima(penya)lar qo'llanishining ta'qiqlanganligi;

Moliyaviy amaliyotlarda haddan ortiq mavhumlik/noaniqlikka yo'l qo'ymaslik;

Moliya amaliyotlari mavjud aktivlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerakligi;

Sherikchilik va daromad olish xatarlarni zimmaga olish bilan bog'liq bo'lishi;

Shariat ko'rsatmalariga zid bo'lgan tadbirkorlikka investitsiya kiritishning ta'qiqlanganligi (masalan, spirtli ichimliklar ishlab chiqarish).

Islom moliyasi tizimida pul hech qachon tovar (mahsulot) sifatida qabul qilinmaydi. Buning o'rniga pul doimiy ravishda ayirboshlash vositasi, qiymat o'lchovi va hisob birligi sifatida qaraladi, ya'ni Islom moliyasida pul o'z – o'zidan pul (foiz)ni

yarata olmaydi. Shuning uchun ham Islom moliya tashkilotlari, xususan banklari birinchi navbatda, savdo, lizing va pul operatsiyalari hamda investitsiya faoliyati bilan shug'ullanadi. Islom banklari foiz ko'inishida daromad olish maqsadida omonat qabul qila olmaydi yoki qarz bera olmaydi. Islom banklari va ularning mijozlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turli moliyaviy vositalar yoki shartnoma turlariga qarab farqlanadi. Xususan, Islom moliyasida quyidagi shartnoma va/yoki mahsulotlardan keng foydalaniladi:

**Murobaha:** Murobaha – bu Islom banklari tomonidan aktivlarni moliyalashtirishda keng foydalaniladigan maxsus savdo-sotiq bitimi bo'lib, bunda sotuvchi mahsulotning xarid narxini, mahsulotni xaridorga yetkazishga bevosita aloqasi bo'lgan xarajatlarni va uning ustiga o'zi qo'ygan ustamani (foydani) xaridorga ma'lum qiladi. Agar sotuvchi xaridorga mahsulotning narxini ma'lum qilmasa, unda bu murobaha emas, balki islom moliyasida «musavama» deb ataluvchi oddiy savdo bitimi bo'ladi. Murobahada tomonlar mahsulot narxini birdaniga to'lanishiga ham, keyinroq (ya'ni ma'lum bir muddat ichida) to'lanishiga ham kelishishlari mumkin. Mazkur uch tomonlama shartnoma mijoz, tovar yetkazib beruvchi va Islom banki tomonidan imzolanadi. Bank yetkazib beruvchidan qisqa muddatli yoki uzoq muddatli aktivlarni sotib oladi va ularni o'z vaqtida ustama to'lash sharti bilan mijozga sotadi. Bank moliyalashtirilgan aktivlar uchun garov yoki kafolat talab qilishga xaqli. Yetkazib beruvchidan tovar sotib olayotganda, xaridor xaridorga sotishdan oldin sotib olish qiymatini aytadi, ya'ni bank tovar qiymatiga ustama miqdorini e'lon qiladi. An'anaviy banklardan farqli ravishda, kelishilgan narxlar butun davr mobaynida o'zgarmaydi. O'z vaqtida to'lanmagan to'lovlar uchun jarima kompensatsiya sifatida shartnomaga kiritilishi mumkin, biroq, mazkur mablag'lar Islom bankining daromadi sifatida tan olinmaydi, balki xayriya jamg'armalariga yo'naltiriladi. Murobaha shartnomasiga misol sifatida, bank tomonidan ma'lum bir mol-mulk, asbob – uskuna kabi aktivlar sotib olinishini moliyalashtirishda ishlatiladi. Islom banki mazkur mol-mulknii mijozning ariza shaklida bergan maxsus buyurtmasiga asosan sotib oladi. Keyin esa

o'sha mijozga mazkur mol-mulkni o'z ustamasini qo'ygan holda nisbatan qimmatroq (mol-mulk uchun qilingan barcha xarajatlar + foyda) narxda sotadi. Yakuniy narx tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan, mijoz tomonidan belgilangan muddat davomida bo'lib-bo'lib (odatda oyma-oy) to'lab boriladi.

**Mushoraka:** Mushoraka iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirishning eng moslashuvchan va qulay vositasi hisoblanadi. AAOIFI xalqaro standartlariga muvofiq, mushoraka (sharika, shirkat so'zlaridan kelib chiqqan holda) sherikchilik shartnomasidir, ya'ni bu ikki va undan ortiq tomonlar (shariklar) o'rtasida foyda olish maqsadida, o'z aktivlari yoki mehnat resurslarini birlashtirish to'g'risidagi o'zaro kelishuvni anglatadi. Mufti Muhammad Taqi Usmoniyning tadqiqotlariga ko'ra, Mushoraka atamasi arab tilidan olingan bo'lib, "bo'lishish", "sharik bo'lish" kabi ma'nolarni anglatadi. Mushoraka bitimida investorning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarda ishtirok etish majburiyatini ham o'z ichiga oladi. Mushoraka bitimi Ingliz qonunchiligidagi sheriklik shartnomasiga o'xshaydi, unga ko'ra ikki yoki undan ortiq sheriklar o'z moddiy (moliyaviy mablag'lar, bino, uskuna, xom ashyo va boshqalar) va ma'naviy (masalan intellektual mulk) imkoniyatlarini birlashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishadi. Foyda va zarar taqsimoti masalasiga kelsak, bu masala shartnoma tuzish vaqtida aniqlanadi va ko'rilgan foyda, ana o'sha kelishuv asosida tomonlar o'rtasida taqsimlanadi. Ko'rilgan zarar esa, har bir sherikning biznesdagi ulushi nisbatiga ko'ra taqsimlanadi.

**Mudoraba.** Mudoraba islom moliyasida mavjud bo'lgan eng noyob sherikchilik usuli bo'lib, unda bitta sherik biznesni boshlash va/yoki yuritish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini sarmoya sifatida taqdim qiladi, boshqa sherik esa ushbu mablag'larni samarali va oqilona boshqarish orqali daromad keltiradigan faoliyatga investitsiya kiritadi. Bunda sarmoya egasi (investor) Robbul-mol, biznesni boshqaruvchi tomon esa Mudorib deb nomlanadi. Foyda taqsimoti masalasi, ya'ni qaysi tomon qancha olishi sherikchilik shartnomasini imzolash paytida ko'rib chiqiladi va olingan foyda kelishilgan nisbatda taqsimlanadi. Biroq, biznes faoliyat natijasida ko'rilgan barcha

zararlar Robbul-mol tomonidan qoplanadi. Mudorib esa faqatgina qilgan mehnatiga kuyadi, ya'ni u zararni qoplab bermasada, hech qanday foyda ham, mehnati uchun haq ham olmaydi. Ammo, zarar Mudoribning loqaydligi yoki noqonuniy xatti harakatlari natijasida ko'rilgan bo'lsa, u holda bunday zararlar Mudorib tomonidan qoplanadi.

**Ijara.** Ijara – bu mol-mulkdan ma'lum muddat davomida haq evaziga foydalanib turishni anglatadi. Islom moliyasidagi ijara an'anaviy ijaraga o'xshab ketadi, faqat bunda ijaraga berilayotgan narsa/ob'ekt shariat talablariga muvofiq bo'lishi va manfaat keltirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Ijara asosida moliyalashtirishning ikkita usuli mavjud. Birinchisi amaliy ijara bo'lib, bunda mijoz shartnomada belgilangan muddat davomida ijara to'lovlarini amalga oshirib boradi va yakunda ijaraga olingan mulkni moliya muassasiga qaytaradi. Moliyaviy ijara deb nomlanadigan ikkinchi turdagi ijara shartnomasida ijara muddati nihoyasiga yetgach, mulkka egalik qilish (huquqi) ijara/lizing oluvchiga o'tkazilishi mumkin. Bunda ijaraga oluvchi moliyaviy ijaraga olingan mulkni ijara davomida sotib olgan bo'ladi. Ijara bitimida ribo unsurlari mavjud emas.

**Takaful.** Takaful arabchada “kafala” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kafolat berishni anglatadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, bu so'z “kafolat” va “bir – birini ximoya qilmoq” ma'nolari bilan “takafala” fe'lidan kelib chiqqan. Shuning uchun so'zma - so'z tarjima qiladigan bo'lsak, bu o'zaro yordam berish ma'nosini anglatadi. Shuni ta'kidlash joizki, o'zaro yordam g'oyasiga asoslangan “Takaful” shartnomasiga ko'ra, har bir a'zo o'zaro ximoya shartnomasi bo'yicha muhtoj a'zolarga yordam ko'rsatish maqsadida umumiy fond (jamg'arma)ga moddiy yordam ko'rinishida o'z xissasini qo'shadi.

#### **4. XULOSA VA TAKLIFLAR**

Islom moliya tizimi o'zaro ishonch, axloq, hurmat, risklarni taqsimlash, majburiyatlarga to'liq rioya qilish va foydani adolatli hamda xaqqoniy taqsimlash tamoyillariga asoslanadi. Bu faqatgina o'z foydasini olishga qaratilgan an'anaviy banklardan farqli o'laroq, islom banklarining o'z faoliyati davomidagi yakuniy

natijalaridan manfaatdorligini ta'minlaydi. Islom banklari nafaqat bank bozorining, balki butun moliya tizimining barqaror rivojlanishini shakllantirishga yordam beradigan o'ziga xos xususiyatlar majmuasiga ega. Tadqiqotimiz natijalaridan shunday natijalar olishimiz mumkinki, islom moliyasi O'zbekistonda tadbirkorlar uchun zarur bo'lgan yangi dolzarb sohadir. Loyihalarni moliyalashtirishda alternativ mahsulotlarning paydo bo'lishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga yordam beradi. Rivojlanayotgan islom moliya tizimiga oid xorijiy davlatlarning tajribasi, eng avvalo shuni ko'rsatmoqdaki, tegishli me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish, tegishli infratuzilmani shakllantirish, aholiga tushuntirish ishlarini olib borish, investor davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarur.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. ADB. (2018) Financial Inclusion, Regulation, and Literacy in Uzbekistan <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/441226/adbi-wp858.-pdf>
2. Abdullah, Z., & Susanto, A. A. (2019). The role of investment-based Islamic crowdfunding for halal msme: evidence from indonesia. *Al-Iqtishad: Jurnal Ilmu Ekonomi Syariah (Journal of Islamic Economics)*, 11(2). <https://doi.org/10.15408/aiq.v11i2.13623>
3. Elasrag, H. (2016). Islamic finance for SMES. *Journal of Economic and Social Thought*, (October). <https://doi.org/10.1453/jest.v3i3.1009>
4. Iqbal, Z. (1997). Islamic Financial Systems. *Finance & Development*, (June). <https://doi.org/10.4337/9781843762959.00012>
5. Jakhongir Imamnazarov. (2019). *Iqtisodiyot va Ta'lim*. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
6. Jakhongir Imamnazarov. (2018). O'zbekistonda islom bank-moliya tizimini shakllantirish va rivojlantirish istiqbol va imkoniyatlari. *Bank, Pul va Kredit*.